

**ABDURAZZOQ FAQIRIY – MILLIY UYG‘ONISH
DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI VAKILI**

*Abdullayeva Guliston Sultanovna, Ranch texnologiya universiteti
katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

**ABDURAZZOQ FAQIRI IS A REPRESENTATIVE
OF UZBEK LITERATURE OF THE PERIOD OF
NATIONAL RENAISSANCE**

*Abdullayeva Guliston Sultanovna, senior lecturer at Ranch
University of Technology, independent researcher*

**АБДУРАЗЗОК ФАКИРИ – ПРЕДСТАВИТЕЛЬ
УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ ПЕРИОДА
НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ**

*Абдуллаева Гулистан Султановна, старший преподаватель
Технологического университета Ранч, независимый
исследователь*



[https://orcid.org/0009-0002-
2937-6784](https://orcid.org/0009-0002-2937-6784)
e-mail:
[gulistonabdulayeva@gmail.
com](mailto:gulistonabdulayeva@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhitining taniqli vakillaridan hisoblangan Abdurazzoq Faqiriyning ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan she’rlari tahlilga tortiladi. Ayniqsa, uning yangi maktablar targ‘ibiga bag‘ishlangan she’rlari, hajviy yo‘nalishda bitilgan asarlari milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining go‘zal namunalari ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Faqiri, ma’rifatparvarlik, yangi maktablar, hajviya, badiiyat, mahorat, Muqimi, Tavallo, So‘fizoda.

Abstract: In this article, the poems written in the appearance of enlightenment by Abdurazzaq Faqiri, who is considered one of the famous representatives of Khorezm’s literary environment, are analyzed. In particular, it is shown that his poems dedicated to the promotion of new schools, his comic works are beautiful examples of Uzbek literature of the period of national renaissance.

Key words: Faqiri, enlightenment, new schools, humor, artistry, skill, Muqimi, Tavallo, Sufizoda.

Аннотация: В данной статье анализируются стихи одного из известных представителей хорезмской литературной среды Абдураззака Факири, написанные в духе просветительства. В частности, указывается, что его стихотворения, посвященные пропаганде новометодной школы, а также юмористические произведения являются прекрасными образцами узбекской литературы периода национального возрождения.

Ключевые слова: Факири, просветительство, новометодные школы, юмор, художественность, мастерство, Мукими, Тавалло, Суфизода.

KIRISH. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida ma’rifatparvarlik va jadidchilik g‘oyalari adabiyotning asosiy g‘oyalardan biriga aylandi. Bu davr adabiyotining taniqli vakili Abdurazzoq Faqiri (1880-1825) ijodida ham yuqoridagi kabi g‘oyalalar badiiyat mezonlari asosida samarali qo‘llanildi. Uning milliy uyg‘onish mavzusida yozgan she’rlari, “Faloni”

turkumidagi qit’alari davr adabiyotining go‘zal namunalari sifatida e’tirof etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Abdurazzoq Faqiri hayoti va ijodi xususida Laffasiy, Bobojon Tarroh Xodim tazkiralarida ma’lumot berilgan. Bu tazkiralar vislar shoir hayot yo‘liga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lib, ijodining ba’zi qirralari xususida fikr-mulohazalarini

bayon etishgan. Adabiyotshunoslar F.Musamuhamedova, V.Mirzayev, N.Qobulovlar tadqiqotlari shoir ijodining monografik o'rganilganligi bilan ajralib turadi. Biz ushbu kichik tadqiqot ishimizda qiyosiy-tarixiy, germenevtik, struktural tahlil metodlaridan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Abdurazzoq Faqiriy 1880-1925-yillarda yashab ijod etgan. U shoir bo'lish bilan birga xattotlik va naqqoshlik bilan ham shug'ullangan. O'z davrining taniqli xattoti Xudoybergan Devonovning shogirdi bo'lgan.

U 1914 - 1915-yillarda devon tuzgan. Devondagi she'rlar mumtoz adabiyot an'analari asosida yozilgan. Ushbu devondan shoirning g'azal, masnaviy, murabba', muxammas, musaddas, mustazod, ruboii, chiston kabi janrlarda yozgan she'rlari o'rin olgan. Uning ma'rifatparvarlik, taraqqiyatparvarlik ruhida yozilgan she'rlari "Daftari ash'ori jadida" ("Yangi she'rlar daftari") ga jamlangan.

Hayotining so'nggi yillarda yozilgan ba'zi she'rlari "Yug'urmiya" to'plamiga kiritilgan. Faqiriy qalami o'tkir, badiiyatda mohir, hajviyotda oldingi saflarda turuvchidir. Faqiriy zamonasining ilg'or vakiliga bag'ishlab yozgan she'rda bu shaxsnинг ma'rifatparvarligiga ham alohida e'tibor qaratadi. Faqiriy barcha fazilatlarga ega, shu jumladan, ilm ahliga homiy bo'lgan kishilarning ta'rifini alohida mehr-u muhabbat bilan tasvirlaydi. Ularni duo qiladi. Farovon yurt, farovon jamiyat uchun yuksak fazilatli insonlar kerakligiga ishora etadi:

*Xususan hovlingizga bo'lsa mehmon tolibi ilmlar,
Alarga izzatingiz, xizmattingiz beباho bo'lg'ay.
Faqir aylar duongiz xolisollilloh kecha-kunduz,
Berib bisyor farzand, yoringiz doimo xudo bo'lg'ay*¹.

Faqiriy 1920-yillarda ilm-ma'rifat, yangi maktablar targ'ibiga katta e'tibor qaratdi. Ochilayotgan yangi maktablar yangi davrning jarchisi ekanligi, jaholat qasrining buzuvchisi ekanligi shoirning dilini to'lqinlantiradi. Faqiriy nazdida, u ko'rgan, o'qigan madrasalar fisq-u bid'atning makoni. To'g'ri, barcha madrasalar haqida ham yuqoridagi kabi salbiy fikrni bildirib bo'lmaydi. Chunki bu madrasalarda ne-ne ulug'lar

saboq olgan. Fan sir-asrorlarini egallaganlar. Afsuski, Faqiriy yashagan davrga kelib ba'zi madrasalar ta'limida ham kamchiliklar kuzatildi. Ana shularni ko'rgan Faqiriy o'zi ko'rgan ayrim madrasalar haqida salbiy fikrlar bildirgan. Shoir yozadi:

*Bilingkim, toza davron jarchisidur yangi maktablar,
Jaholat qasrini ham buzg'usidir yangi maktablar.
Agarchi madrasalar fisq-u bid'atga makon erdi,
Vale ilm-u hunarlar partavidur yangi maktablar*².

Ba'zi madrasalarda o'qish juda cho'zilib ketgan. Shundaylari bor ediki, madrasalarda 10-15 yil o'qib ham ismini yozolmasdilar. Bu esa shoirni juda g'azablantiradi.

Yangi maktablar esa o'n oyda o'quvchilarni savodxon etib chiqarishi mammunlik bilan tasvirlanadi. Ilm insoniyatni baxt-iqbol manziliga yetkazishi, sidqidildan o'qiganlarni, albatta, saodat manziliga eltishi faxr bilan bayon etiladi:

*O'n-o'n besh yil o'qubon na yozolmas erdi ismini,
O'n oyda bas savodxon etgusidir yangi maktablar.
Bashar iqbol-u baxti manziliga yetkazur, albat,
O'qusqoq sidqidildan eltgusidir yangi maktablar*¹.

Toshkent adabiy muhitida ham maktab mavzusi yetakchi mavzulardan edi. Bu adabiy muhit vakillaridan To'lagan Xo'jamiyorov Tavallo maktab ta'rifiga alohida she'r bag'ishlagan. U maktabdan har bir beodob odob o'rganishi, har bir betob bu dargohdan davo topishi, maktab ko'ngil boyligiga ko'p noyob durlar hadya etishi xususida go'zal ta'riflar beradi:

*Muqarrar o'rganur har beadab odob maktabdan,
Davo shaksiz topar har bedavo betob maktabdan.
Ko'ngil ganjina o'lg'on pur durri noyob maktabdan,
Maorif tashnasi kimga bo'lur serob maktabdan,
Qarig'on dil o'lur, albatta, bir maktab maktabdan*².

Yuqoridagilardan ko'rindik, Faqiriy Xorazmda, Tavallo Toshkentda bo'lishiga qaramasdan ular maktab-maorif ta'rifida bir-biriga yaqin fikrlarni she'rga soldilar. Albatta, ularning maqsadlari mushtarak edi. Har ikkala shoir ham ilma'ma'rifatgina yurtni taraqqiy etgan davlatlar qatoriga qo'sha olishini anglab yetgan edilar.

Ma'lumki, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos jihatlaridan biri

¹ Faqiriy. She'rlar (Nashrga tayyorlovchi V. Mirzayev). Toshkent: 1972. 101-bet.

² O'zbek adabiyoti. To'rt tomlikka ilova. Beshinchi tom. Ikkinci kitob. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. 257-bet.

¹ Yuqoridagi manba. 257-bet.

² Tavallo. Millat sadosi. Nashrga tayyorlovchi Dildora Rahmonova. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 147-bet.

hajviyotning rivojlanganidir. Xususan, hajviyotda adresli tanqid kuchaygan. Biz bu davr adabiyotida Muqimiyl, Zavqiy, Tavallo, So‘fizoda va boshqalarning ijodida hajviy asarlar yozishga keng o‘rin berilganiga guvoh bo‘lamiz. Xorazm adabiy muhitida esa Abdurazzoq Faqiriy ijodida hajviy she’rlar uchraydi. Jumladan, uning “Tavsifi Tag‘oy so‘fi”, “Ta‘rifī bir ajab bangi” she’rlari sof hajviy asarlardir. Shoir Tag‘oy So‘fi ta‘rifini keltirar ekan, uning buqalamunday turli qiyofaga kirishini, o‘zini goh voiz, goh hofiz, goh zohid, goh kosibga o‘xshatishini mahorat bilan tasvirlaydi. Ba’zan olibsotarlikni kasb qilib, odamlarni chuv tushirishi qalamga olinadi. Faqiriy uning qiyofasini mubolag‘alardan foydalangan holda shunday chizadiki, beixtiyor chehrangizga kulgu yuguradi:

Taajjub katta qilmish jussasin haq, chun minoradek, Yursa tebranur yer, ko‘rgan ot urkor Tag‘oy so‘fi. Agarchi na‘ra ursa, jumla maxluq zahrasin yorg‘ay, Teva yonidin o‘tsa, teva ham hurkar Tag‘oy so‘fi. Taom yer bo‘lsa yuhodek to‘yarg‘a aqli yetmaydur, Va lekin qancha to‘ysa ham sahar bedor Tag‘oy so‘fi.

To‘yib, kekirganin har kim eshitsa, bo‘lg‘usi lohaz, Ko‘mirchi teva baqirg‘anig‘a o‘xshar Tag‘oy so‘fi¹.

Faqiriy Tag‘oy so‘fi hayotining turli manzaralarini, uning fe’l-atvorini, tili bilan dili boshqa-boshqaligini, insoniylikdan yiroq bir nusxa ekanligini gohi kulgili, gohi nafratlanarli tarzda tasvirlaydi, o‘zining hajvchilik iqtidorini ko‘rsatadi.

Faqiriyning yana bir hajviyasi “Ta‘rifi bir ajab bangi” deb nomlanadi. Shoir uning ta‘rifini keltirar ekan, Xivaqda unga o‘xshash bangi yo‘qligini, u ajabtovur kimsa ekanligini hajvga oladi:

*Bu Xivaq ichra turluk bangilar yo‘qtur bunga monand, Tamomi bangilar bir yonadur, bu bir taraf bangi. Taajjub qilmangiz, ey do‘sstar, andek qilay ta‘rif, Aningdek yo‘q jahonda turk-u tojik, ne arab bangi. Hama bangi chekib kayf aylasa, bu yer, sira to‘ymas, Bu bangilarni yuhosimu, bilmon ne sabab bangi?*²

Insoniylik qiyofasini yo‘qotgan bu kishi givohvandlik balosiga ham yo‘liqqan. U bang ilinjida har narsaga tayyor. Shoir Faqiriy bangi tasvirini berar ekan, o‘rni bilan undan nafratlanadi. Ba’zan esa achinish bilan qaraydi. Hatto Alloh

hayvonlarda ham bu kasallikni paydo qilmagay, deya niyat qiladi. Shoir bu balo millatlar kushandasini ekanligini, tuzalmas ofatligini eslatganday bo‘ladi. She’r yakunida Faqiriy baribir adresli hajviya ekanligini eslatganday bo‘ladi. O‘zi ta‘rif-u tavsifini keltirgan bangi xalq orasida Qori Xudik deb atalishini, uning laqabi “To‘mmiq” ekanligini keltiradi. Xudik ismi Xudoybergan ismining qisqartirilgani, “to‘mmiq” so‘zi adabiy tilimizda cho‘loq, lang, oqsoq ma’nolarini anglatadi. Ko‘rinadiki, Faqiriy ba’zi bir zamondoshlarining jirkanch qiyofasini hajvga oladi. Bangilik, giyohvandlik bedavo dard ekanligini eslatadi. Yurdoshlarini o‘z asarları qahramonlariga o‘xshamasliklari kerakligini uqtirgandek bo‘ladi. Yangi davr kishilari hajviyalarda tasvirlangan illatlardan xoli bo‘lishlarini istaydi.

XULOSA. Abdurazzoq Faqiriy Xorazmdagi ma’rifatparvarlik va jadidchilik harakatining faol a’zolaridan hisoblangan. U ijodining birinchi bosqichida mumtoz adabiy an’analar ta’sirida ijod qilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqichida ma’rifatparvarlik, taraqqiyatparvarlik mavzusida samarali ijod etdi. U yangi maktablar ochilishini olqishladi, o‘qitishning zamonaviy turlaridan foydalaniylganligini she’rga soldi. Hurriyat, erk-ozodlikni tarannum etuvchi asarlar yozdi. O‘rni kelganda davlat boshlig‘i – Xiva xonini ham o‘z she’rlarida ayab o‘tirmadi. Davriming muhim muammolariga bag‘ishlangan hajviyalar yozib, o‘zining badiiy iqtidorini namoyon qildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Faqiriy. She’rlar (Nashrga tayyorlovchi V. Mirzayev). Toshkent: 1972. 101-bet.
2. O‘zbek adabiyoti. To‘rt tomlikka ilova. Beshinch tom. Ikkinci kitob. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. 257-bet.
3. Yuqoridagi manba. 257-bet.
4. Tavallo. Millat sadosi. Nashrga tayyorlovchi Dildora Rahmonova. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 147-bet.
5. Abdurazzoq Faqiriy. She’rlar. Nashrga tayyorlovchi Valijon Mirzayev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 34-35-bet.
6. Yuqoridagi manba. 37-bet.

¹ Abdurazzoq Faqiriy. She’rlar. Nashrga tayyorlovchi Valijon Mirzayev. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. 34-35-bet.